

UZBEKİSTAN

LANGUAGE & CULTURE

O'ZBEKISTON: TIL VA MADANIYAT

Lingvistika

2022 Vol. 2 (1)

www.linguistics.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

MUNDARIJA

Lingvistika

Zulxumor Xolmanova, Manzura Shamsiyeva

Bolada bilingvismni shakllantirishda ona tilining ahamiyati6

Ahmet Erdem

Misafir ve misafirperverlik kavramları ile ilgili özbek atasözleri
üzerine bir inceleme.....14

Tuncer Gülensoy

Köktürkler'in büyük veziri "Tonyukuk boyla baga tarkan"ın adı
üzerine yazılanlar ve yeni bir görüş.....29

Tanju Oral Seyhan

Alişir Nevâyî'nin eserlerinin oğuzcaya aktarımı.....37

Manzura Abjalova, Xursandoy Geldiyeva

O'zbek tiliga xorijiy tillardan kirib kelgan iqtisodiy va biznes
sohadagi neologizmlar.....47

Sabohat Bozorova, Ibodat Bozorova

Gazeta tilini o'rganish aspektlari.....63

Saodat Israilova

"Ko'k" leksemasining etimologik tavsifi.....75

Kamola Rixsiyeva

O'zbek xalq maqollaridagi "qap" asosli birliklarning semantik tahlili.....87

Iqbol O'razova

"Suhayl va Guldursun" dostonida qo'llangan frazemalar statistikasi.....96

Feruza Murodxdodjayeva

So'z va so'z birikmalari semantikasining kognitiv xususiyatlari
va ularning tarjimadagi ifodasi.....104

Nodir G'afforov

O'zbek tilining umumiy lug'atlarida sport terminlarining ifodalaniishi...118

“Suhayl va Guldursun” dostonida qo’llangan frazemalar statistikasi

O’razova Iqbol¹

Abstrakt

Mumtoz adabiyotimiz namunalariga nazar solsak, matnda obrazlilik va ekspressivlikni oshirish maqsadida frazemalardan unumli foydalilaniganiga guvoh bo’lamiz. Afsuski, frazemalarni diaxron asosda o’rganish tilshunoslikda nisbatan kam tadqiq qilingan yo’nalishlardan biri sifatida dolzarblik kasb etmoqda. Mazkur maqolada mumtoz adabiyotimizdagi ilk ishqiy-romantik dostonlardan biri sanalgan Sayfi Saroyining “Suhayl va Guldursun” asarida ishlatilgan frazemalar statistikasi va chastotasi keltirib o’tilgan. Tahlilga tortilgan frazemalar sinxron holatiga ko’ra leksik o’zgarishsiz qo’llanuvchi frazeologizmlar, leksik o’zgarish bilan qo’llanuvchi frazeologizmlar, arxaiklashgan frazeologizmlar kabi guruhlarga bo’linib izohlangan. Leksik qayta shakllanishning leksema tushishi, leksema ortishi, leksema almashinishi kabi bir necha usullari sanab o’tilgan. Frazeologizmlardagi leksik o’zgarishlar asoslanib tahlil qilingan va xulosalar bayon etilgan.

Kalit so’zlar: *frazema, arxaik frazemalar, leksema, leksik qayta shakllanish, statistika, ot, fe'l, ravish, sifat, vazn.*

Kirish

XIV asr adabiyotining atoqli vakillaridan biri Sayfi Saroyi bo’lib, ijodkordan “bizga adabiy meros sifatida 10 ta g’azal, bir qasida, 6 ta qit’a, 4 ta ruboiy, 82 baytdan iborat “Suhayl va Guldursun” dostoni, “Guliston” asari erkin tarjimasi qolgan” [Davronov 1967, 28]. “Sayfi Saroyi aruz vaznining barcha shakllarida, ayniqsa eng qiyin, shuningdek, o’ynoqi, kuyli vaznlarida g’azallar yozgan. Uning g’azallari o’zbek adabiy tilining xorazm shevasida yozilgan. Har bir she’rini, g’azalini o’qish yengil, forsiy, arabiylar so’zlar juda kam ishlatilgan. To’g’riroq aytganda, o’zbek adabiy tili asoschisi hisoblangan Navoiy g’azallarining tilidan ham yengildir” [Davronov 1967, 32]. Shoirning “Suhayl va Guldursun” dostoni o’zbek

¹O’razova Iqbol Abdikarimovna – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti.

E-mail: orazovaiqbola@gmail.com

Iqtibos uchun: O’razova, I.A. 2022. “Suhayl va Guldursun” dostonida qo’llangan frazemalar statistikasi”. *O’zbekiston: til va madaniyat*. 2 (1): 96-103.

adabiyotidagi ilk ishqiy dostonlardan biri bo’lib, asar aruzning hazaji musaddasi mahzuf (maqsur) bahrida yozilgan.

Metodologiya

Mazkur maqolada Sayfi Saroyi qalamiga mansub “Suhayl va Guldursun” dostonida istifoda qilingan frazeologik birliklar aniqlandi, statistik ma’lumotlar keltirildi, frazemalar tasniflash metodi asosida guruhlarga ajratilib, farqli va umumlashtiruvchi belgilari tavsiflandi. Frazeologizmlarning bugungi kundagi variantlari va asardagi varianti qiyoqlandi.

Asardagi frazemalar statistikasi

Dostonning yaratilishi Xorazm xalq og’zaki ijodida hozirgacha mashhur bo’lgan “Guldursun” afsonasiga borib taqaladi. Garchi muallifning o’zi asar syujeti afsona emasligini ta’kidlagan bo’lsa-da, xalqdan ilhom olganini rad etmaydi. Xalq ijodiyotidan ilhomlangan shoirning asardagi obrazlilikni oshirish maqsadida jonli tilda faol qo’llangan frazemalardan ham unumli foydalanganiga ham guvoh bo’lish mumkin.

Doston matni leksik jihatdan tahlil qilinganda, 39 o’rinda frazeologik birliklar aniqlandi. Shundan ikkita frazema (*chora izlam-oq, ko’nglima kelmoq*) ikki o’rinda takror uchraydi, qolgan 35 ta ibora takrorsiz qo’llangan. Demak, dostondagi frazemalar statistikasi 37 tani tashkil qiladi.

Frazema	Misoli	beti
Alam toshi sinmoq	O’nginda tushdakin ko’rganga u shod, Alam toshi sinib, dil bo’ldi ozod.	328
Azob ichra yotmoq	Azob ichra yotib zindonda Suhayl, Etardi horg’onida uyquni mayl.	327
baxt bitmoq	Falak aylanmasi-la davr yetgay, Adolat urlug’undin baxt bitgay.	327
bir gez kelmoq	Bu kech senga-yu menga keldi bir gez, Dedi Suhaylg’a Guldursun: «Turub tez.	329
boshi uzra javr toshi yog’moq	Vale javr toshi yog’ib boshi uzra, Eipti boshini xam qoshi uzra.	326
boshini xam etmoq	Vale javr toshi yog’ib boshi uzra, Eipti boshini xam qoshi uzra.	326
Buday sovruldi, tuproq bo’tqa bo’ldi	Ekinchi evlari yoqildi o’tqa, Buday sovruldi, tuproq bo’ldi bo’tqa.	326
Chora izlamоq	Kelib Guldursun ko’nglina bu so’zlar, Kejib kunlarki, bunga chora izlar. U izlab chora , yaxshi chora topdi.	328
chora qilolmay qolmoq	Sipohiyilar qilolmay qoldi chora, Faqat qondirdi bu g’am dilda yora	326

chora topmoq	U izlab chora, yaxshi chora topti, Solib ichina g'urniq evi yopti.	328
Dast bermoq	Javob kutti bo'lub u ish aro mast, Vale taqdir kulib tez bermadi dast.	327
davr yetmoq	Falak aylamasi-la davr yetgay, Adolat urlug'umdin baxt bitg'ay.	327
Falak aylanmasi	Falak aylanmasi-la davr yetg'ay, Adolat urlug'umdin baxt bitg'ay.	327
go'sh osmaslik	Va oni tashlidilar katta chohga, Sira osmay alar go'sh oh -u vohga	327
Hushdin ayrilib qolmoq	Ko'rub uyquda ham qo'rquvli tushdin, Qolurdi ayrilib har damda hushdin.	327
jong'a darmon berolmay qoldi	Suhayl bordi topurg'a suvg'a, dong'a, Vale darmon berolmay qoldi jong'a.	329
ming jonim bo'lsa, senga tortiq	Agar ming jonim o'lsa senga tortiq, Bo'lurmdu do'st-u yorliq shundan ortiq?	329
Jonini tortiq qilmoq	O'lurmu sevgi ham bil, shundin ortuq, Ki ikkisi qilur jonini tortiq.	329
Keng olam ko'ziga ko'rinxmay qolmoq	Shu so'zni aytti, tig' urdi o'zig'a, Ko'rinxmay qoldi keng olam ko'ziga.	329
Ko'ngil bermoq	Unga do'st bo'l, uni sevgil, ko'ngil ber, Uning so'z bahridan gavharlarin ter!	330
ko'ngil ochmoq	Chiqib chohdin uzoqlarg'a qochaylik, Bu yerda ag'lamay ko'ngil ochaylik.	329
Ko'ngliga otash tashlamoq	G'azoldek silkinib ochchi parivash, Suhayl ko'ngliga tashlab katta otash.	327
ko'nglima kelmoq	Kelib ko'nglima Majnun, Layli yodi Gelib Guldursun ko'nglina bu so'zlar.	330
ko'z ko'r, qulog kar bo'lmoq	Temur Urganja tortib keldi lashkar, Ko'rub ko'z-ko'r, bo'lib qoldi qulog -kar.	326
Mayl etardi-	Azob ichra yotib zindonda Suhayl, Etardi horg'onida uquni mayl.	327
maylni taslim etti -	O'zin gul bildi-yu, bulbul — Suhaylni, Ani sevdi-yu taslim etti maylni.	328
mot etmoq	Suhayl husni erur Yusufdin oliy, Etar mot olmani yuzining oli.	326
Ohidin bo'ron qo'pti	Suhayl ohidin shu dam qo'pti bo'ron, Aningtekkim, buzuldi charxi davron.	329
ojiz bo'lib qoldi	Suhayli aljni elttilar asirga, Hama qoldi bo'lub ojiz bu sirga.	326
Olamda to'fon qo'zutmoq	Qo'zutti jang bilan olamda to'fon, Oqitti suv tekin yer uzra ko'p qon.	326
olam qarong'u	Seningsiz manga olamdur qarong'u, O'lim-da solmag'ay bizlara g'ulg'u.	329
qon oqitti	Qo'zutti jang bilan olamda to'fon, Oqitti suv tekin yer uzra ko'p qon.	326
qora kiygan	Suhayl shu yo'l uzar bormoqda g'amgin, Sevinchi qora kiygan, ko'zi namgin.	327

taqdir kulib	Javob kutti bo'lub u ish aro mast, Vale taqdir kulib tez bermadi dast.	327
Tilim evrilmas	Bor erdi shoh qizi, Guldursun oti, Tilim evrilmas aytmog'a sifoti(n).	328
Tiri oyrildi	O'lib katti so'g'ishda To'xtamishxon, Tiri oyrildi tuvg'ondin tug'ushg'on.	326
Yod etay	Nedur zoting, pari yo odamizod? Manga ayt, odingi doim etay yod.	327

Asarda foydalanilgan frazemalarning sinxron tavsifi

Tahlilga tortilgan frazeologizmlarni sinxron holatiga, ya'ni hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanish holatiga ko'ra uch guruhga ajratish mumkin:

1. Hozirda leksik o'zgarishsiz qo'llanuvchi frazeologizmlar. Bunday frazemalarning morfologik tarkibi o'zgarishga uchrasa-da, ya'ni eski o'zbek tilida qo'llangan grammatik shakllar jonli tilda hozirgi o'zbek adabiy tilidagi varianti bilan almashgan holda qo'llansa-da, leksik tarkibi saqlanib qolgan bo'ladi. Bu guruhga mansub iboralar dostonda 13 ta bo'lib, ular quyidagilar: *boshini xam etmoq, boshin ko'tarmoq, chora izlamoq, chora qilolmay qolmoq, chora topmoq, hushdin ayrilmoq, ko'ngil bermoq, ko'ngil ochmoq, ko'nglima kelmoq, ko'z ko'r, quloq kar bo'lmoq, mot etmoq, qora kiygan, taqdir kulmoq*.

Bu iboralarning leksik jihatdan o'zgarishsiz yetib kelgani sababi sifatida iboralar tarkibini shakllantirgan leksemalarning, asosan, o'z qatlamga mansubligini ko'rsatish mumkin. Qolaversa, bu iboralarning katta qismi ikki komponentli frazemalardir. Shaklan qisqa frazeologizmlarning nutqda faol qo'llanishi ham iboralarning tilda yashovchanligini ta'minlagan bo'lishi mumkin.

2. Hozirda leksik o'zgarish bilan qo'llanuvchi frazemalar.

A.Mamatov bunday frazemalarni "leksik qayta shakllangan frazemalar" deb nomlaydi va bu o'zgarishlarning nolisoniy va lisoniy omillarini sanab o'tadi [Mamatov 2000, 42]. Frazemalar tarkibidagi komponentlar ifodalagan tushuncha yoki voqeahodisaning eskirishi natijasida leksik qayta shakllanish nolisoniy omil sanaladi. Tildagi an'analarning o'zgarishi, frazeologizm asosida yotuvchi obrazni yanada jonlantirish yoki rivojlantirish ta'sirida yuz beradigan leksik qayta shakllangan lisoniy omil sanaladi. Dostonda qo'llangan ayrim frazemalar lisoniy omil sabab hozirgi kunda leksik qayta shakllangan holda nutqimizda uchraydi. *Ohidin bo'ron qo'pmoq-ohi olamni buzmoq; ko'ngliga otash tashlamoq-yuragida o't yoqmoq* kabi frazeologik juftliklarda birinchisiga qaraganda


ikkinchisida voqelikni bo'rttirish, obrazlilik kuchli. Ayrim frazemalar esa o'zlashma so'zlarning o'zbekcha varianti bilan almashinishi natijasida leksik qayta shakllangan. Masalan: *dast bermoq-* qo'l bermoq, *go'sh osmaslik-qulqoq* solmaslik

Leksik qayta shakllangan frazeologik birliklar 16 tani tashkil qilib, ular quyidagilar: *azob ichra yotmoq-* azobda qolmoq, *baxt bitmoq*-baxti kulmoq, *boshi uzra javr toshi yog'moq-* boshiga balolar yog'moq, *bir gez kelmoq-* kezi kelmoq, *dast bermoq-* qo'l bermoq, *davr yetmoq*-vaqt kelmoq, *go'sh osmaslik-qulqoq* solmaslik, *ming jonim bo'lsa, senga tortiq-jonim* qurban, *jonini tortiq qilmoq-* jonini qurban qilmoq, *Ko'ngliga otash tashlamoq*-yuragiga o't yoqmoq, *keng olam ko'ziga ko'rinxmay qolmoq*-ko'ziga dunyo tor ko'rinxmoq, *qon oqitmoq-* qon to'kmoq, *ojiz bo'lib qoldi-ojiz* his qilmoq, *olam qarong'u*-ko'ziga olam qorong'u, *ohidin bo'ron qo'pmoq*-ohi olamni buzmoq, *tilim evrilmash-* tilim aylanmas.

3. Hozirda arxaiklashgan frazeologizmlar. Bu guruhga jonli tilda qo'llanmaydigan yoki qo'llanishi kamaygan tarixiy frazemalar mansub bo'lib, ular 8 tani tashkil qiladi: *Alam toshi sinmoq*(*qutulmoq*), *buday sovrulmoq*, *tuproq bo'tqa bo'lmoq* (*payhon bo'lmoq*), *jong'a darmon berolmay qolmoq* (*yordam bera olmaslik*), *mayl etmoq* (*istamoq*), *maylni taslim etmoq* (*istagini jilovlamoq*), *olamda to'fon qo'zutmoq* (*shovqin solmoq*), *falak aylanmasi-la* (*vaqt o'tib*), *tiri oyrildi* (*yetim bo'lmoq*).

Shuni ham alohida qayd etish lozimki, arxaik frazemalar tarkibida muallifning o'z qalamiga mansub topilma frazemalarni ham uchratish mumkin. Masalan, *Alam toshi sinmoq*(*qutulmoq*), *buday sovrulmoq*, *tuproq bo'tqa bo'lmoq* (*payhon bo'lmoq*), *olamda to'fon qo'zutmoq* (*shovqin solmoq*), *falak aylanmasi-la* (*vaqt o'tib*) kabi badiiy bo'yoq dor iboralar, bizning nazdimizda, muallifning noyob topilmalaridir. Bu frazemalardagi obrazlilikni kuchliliqi, badiiy yuksaklik Sayfi Saroyi qobiliyati va badiiy mahoratining yuqori ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

Ushbu statistik ma'lumotlar diagrammada quyidagi ko'rsatkichlarni ifodalaydi.



Leksik qayta shakllanishning ko'rinishlari

Leksik qayta shakllangan frazemalardagi o'zgarishlarni shartli ravishda quyidagi ko'rinishlarda guruhlash mumkin:

1. Frazema tarkibidagi komponentning tushib qolishi.

Ya'ni frazeologik ellipsis hodisasini A.Mamatov o'z tadqiqotlarida tashqi shaklni takomillashtiruvchi vosita deb hisoblaydi. [Mamatov 2000, 45] Sh.Balli esa "ellipsisni frazeologik shakllanishning usullaridan biri",- deb qaragan. [Balli 1981, 183] Bizningcha, dostonda qo'llangan frazemalarning bugungi tilda ellipsisiga uchrashiga til egasining nutqiy ixchamlikka intilishi sabab bo'lgan. Chunki bugungi kunda qo'llanadigan dunyo *ko'ziga tor ko'rinoq* iborasiga qaraganda "Suhayl va Guldursun" da kelgan *keng olam ko'ziga ko'rinoq qolmoq* frazemasida obrazlilik kuchliroq. Shuningdek, Sh.Ballining fikriga qo'shilgan holda shuni aytish mumkinki, frazeologik ellipsis sinonim frazemalar shakllanishiga ham turtki bo'ladi. Masalan: *bir gez kelmoq-* kezi kelmoq

2. Frazema tarkibiga yangi leksemaning qo'shilishi.

E.Umarov matnda frazemalar bilan birga qo'llanuvchi leksemalarni hamroh so'zlar deb nomlaydi. [Umarov 1968, 17] Olimning fikricha, o'zgaruvchan hamroh so'z va frazeologizm o'rtasidagi leksik-grammatik aloqaning yemirilishi, uning leksik tarkibiga kirib qolishi natijasida yangi ibora paydo bo'lishi mumkin. Ya'ni frazemaning ayrim hamroh so'zlar bilan tez-tez yonma-yon kelishi shu leksemaning ibora tarkibida yaxlitlanishiga sabab bo'ladi. Dostonda qo'llangan ayrim iboralar bugungi kunda shunday o'zgarishga uchraganining guvohi bo'lishimiz mumkin: *olam qarong'u-ko'ziga olam qorong'u*.

3. Frazema tarkibidagi leksemaning almashishi.

Tilning rivojlanish bosqichida ibora tarkibidagi ayrim komponent voqelikni faol ifodalovchi boshqa leksema bilan almashishi mumkin va bu kabi o'zgarish sababli frazeologizmlarning tildagi yashovchanligi ortadi. Dostonda ishlatilgan aksariyat frazemalar tarkibidagi o'zgarish ham leksik almashish natijasida ro'y bergen. Masalan , *Ko'ngliga otash tashlamoq*-yuragiga o't yoqmoq, , *jonini tortiq qilmoq*- jonini qurban qilmoq, *tilim evrilmas* - tilim aylanmas.

Shuni aytib o'tish lozimki, ayrim frazemalar tarkibida ham so'z tushishi, ham so'z almashinishi hodisasi kuzatilganiga-da duch kelindi. *ko'p qon oqitmoq* - qon to'kmoq

Xulosa

1. "Suhayl va Guldursun" dostonida qo'llangan frazeologizmlar chastotasi 39 tani, frazeologizmlar statistikasi esa 37 tani tashkil

qiladi. Asarning 82 baytdan iboratligiga diqqat qaratsak, dostonda frazemalardan faol foydalanilgan deyish mumkin.

2. Asarda qo'llangan frazeologizmlarning katta qismi, ya'ni 29tasi, aynan yoki leksik o'zgarish bilan bugungi jonli nutqda faol ishlatilmoqda. Demak, dostonda istifoda qilingan frazemalarning 78 foizi o'zbek tilida uchrashiga, qolaversa, asar syujeti Xorazm folklori bilan bog'langaniga tayanib muallif asli hozirgi O'zbekiston hududida tug'ilib o'sganini, asar eski o'zbek tilida yozilganini aytish mumkin.

3. Leksik qayta shakllangan frazemalarda, asosan, so'z almashinish hodisa ustunlik qiladi. Bunda asosan frazema tarkibidagi eskirgan birlik yoki o'zlashma so'zlarning bugungi tildagi faol leksemalar bilan almashinishi kuzatiladi.

4. Dostonda qo'llangan frazeologizmlar asar badiiyatini os-hirishga xizmat qilgan.

Adabiyotlar

Балли, Ш. 1981. *Французская стилистика*. Изд-во иностранной литературы.

Davron, N. 1967. *Sayfi Saroyining adabiy faoliyati*. Filol.fanlari kandidati... diss.: 159. Toshkent.

Sayfi Saroyi. 1986. *Suhayl va Guldursun*. Kitobda: Uch bulbul gulshani. To'plam: 326-330. Toshkent: Adabiyot va san'at.

Фазылов, Э. 1966-1971. *Староузбекский язык. Хорезмийские памятники XIV века*. Т.И-II. Ташкент: Фан, Т.И. 1966. 652с. Т.И. 1971. 383с.

Fozilov, E. 1973. *XIV asr Xorazm yodnomalari*: 376. Toshkent: Fan.

Grekov, B.D., Yakubovskiy, A. Y. 1956. *Oltin O'rda va uning qulashi*. Toshkent.

Hakimov, M. 1979. *Navoiy lirikasi va xalq og'zaki ijodi*. Toshkent: Fan.

Madrahimov, O. 1999. *O'zbek tili o'g'uz lahjasining qisqacha qiyosiy lug'ati*. Urganch.

Mallayev, N.M. 1976. *O'zbek adabiyoti tarixi*. 1-kitob. 3-nashri. Toshkent: O'qituvchi.

Mallayev, N.M. *O'zbek adabiyoti tarixi*. 5 томлик. 1-том. Toshkent: Fan.

Mamatov, A. 2000. *O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari*. Filol.f.d...dis. avtoref. Toshkent.

Умаров, Э.А. 1968. *Лексико-грамматическая характеристика фразеологизмов словарь "Хазойин-ул-маоний" Алишера Навои*. Автореф. Дисс... канд.филол.наук. 17. Ленинград.

Vafoyeva, M. 2009. *O'zbek tilidagi frazeologik sinonimlar va ularning structural-semanticik tahlili*. Filol.f.n... diss.avtoref. Toshkent.

Statistics of phrases used in the poem “Suhayl and Guldursun”

Urazova Iqbol¹

Abstract

If we look at examples from our classical literature, we can see that phrases are used effectively in the text to increase imagery and expressiveness. Unfortunately, the study of phrases on a diachronic basis is gaining relevance as one of the relatively little-studied areas of linguistics. This article provides statistics and frequency of phrases used in the book "Suhayl and Guldursun" by Sayfi Sarayi, one of the first romantic epics in our classical literature. The analyzed phrases are divided into groups according to their synchronous state, such as phraseologisms used without lexical changes, phrases used with lexical changes, and archaic phraseologies. There are several methods of lexical reconstruction, such as component reduction, lexeme acquisition, and lexeme exchange.

Key words: *phrase, archaic phrase, lexeme, lexical transformation, statistics, noun, verb, form, quality, weight.*

References

- Балли, Ш. 1981. *Французская стилистика*. Изд-во иностранной литературы.
- Davron, N. 1967. *Sayfi Saroyining adabiy faoliyati*. Filol.fanlari kandidati...diss.: 159. Toshkent.
- Sayfi Saroyi. 1986. *Suhayl va Guldursun*. Kitobda: Uch bulbul gulshani. To'plam: 326-330. Toshkent: Adabiyot va san'at.
- Фазылов, Э. 1966-1971. *Староузбекский язык. Хорезмийские памятники XIV века*. Т. I-II. Ташкент: Фан, Т. I. 1966. 652с. Т. II. 1971. 383с.
- Fozilov, E. 1973. *XIV asr Xorazm yodnomalari*: 376. Toshkent: Fan.
- Grekov, B.D., Yakubovskiy, A. Y. 1956. *Oltin O'rda va uning qulashi*. Toshkent.
- Hakimov, M. 1979. *Navoiy lirikasi va xalq og'zaki ijodi*. Toshkent: Fan.
- Madrahimov, O. 1999. *O'zbek tili o'g'uz lahjasining qisqacha qiyosiylug'ati*. Urganch.
- Mallayev, N.M. 1976. *O'zbek adabiyoti tarixi*. 1-kitob. 3-nashri. Toshkent: O'qituvchi.
- Mallayev, N.M. *O'zbek adabiyoti tarixi*. 5 tomlik. 1-tom. Toshkent: Fan.
- Mamatov, A. 2000. *O'zbek tilifrazeologizmlarining shakllanishi masalalari*. Filol.f.d... dis. avtoref. Toshkent.
- Умаров, Э.А. 1968. *Лексико-грамматическая характеристика фразеологизмов словарь "Хазойин-ул-маоний" Алишера Навои*. Автореф. Дисс... канд.филол. наук. 17. Ленинград.
- Vafoyeva, M. 2009. *O'zbek tilidagi frazeologik sinonimlar va ularning struktural-semantik tahlili*. Filol.f.n... diss.avtoref. Toshkent.

¹Iqbol A. Urazova – Basic Doctoral Student, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: orazovaiqbola@gmail.com

For citation: Urazova, I. 2022. "Statistics of phrases used in the poem "Suhayl and Guldursun". *Uzbekistan: Language and Culture* 2 (1): 96-103.